



TURLI XIL OILALARDA IJTIMOIIY PSIXOLAGIK MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Odina Otajonova

Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada ota-onalarning o‘zaro munosabatlari ta’sirida tarbiyalanayotgan qiz bolaning avvalo onasining otasiga munosabatiga e’tibor qaratishini, onaning oilada bajarayotgan gender roliga qarab o‘zini kelajakda aynan ayollik va onalik roliga tayyorlab borishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jinsiy identifikatsiya, gender roli, oilada o‘zaro munosabatlari, gender stereotiplar

Fuqarolik jamiyati va undagi oilalarda ro‘y beradigan har qanday o‘zgarishlar bir-biriga o‘zaro bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda oilaning, ota-onalarning, jumladan, xotin-qizlarning o‘rni beqiyosdir.

Ona Vatanimiz yer yuzidagi eng kuchli va qudratli bo‘lmog‘i uchun, shu zamin farzandlari jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va barkamol bo‘lishlari shart. Bu muhim shartni ado etish uchun, eng avvalo bola kamol topayotgan oila deb atalmish muqaddas dargohda, unga yaqin insonlarning o‘zaro munosabatlari samimiyat hukmron bo‘lishi ya’ni, oilaning ma’naviy muhiti sog‘lom va unda yashovchi insonlar yaxshi xulq egalari bo‘lishlari ayniqsa muhimdir.

Zero, dono xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bejis aytilmagan. Bu naqlning zamirida ko‘p hikmat bor ya’ni bola oilada tarbiya toparkan, ota-onadagi xulq - atvorni, muomila maromlarini qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi va o‘z hatti-harakatlarida ham shu sifatlarni namoyon qila boshlaydi.

Shu o‘rinda, oilaviy munosabatlarda ayolning o‘rnini targ‘ib qilgan olimlardan biri Oxund Lutfulloh Sulaymon qizi Olimat ul Banotning “Muosharat odobi” risolasidagi ushbu fikrlarni keltirmoqchiman: “Oilaning baxtu saodati ham xotunlarning aqlli-yu ilmli bo‘lmoqlariga bog‘lanmishdir. Xotunlar yaxshi tarbiyali bolalarni yetishtiradilar. Ularning tarbiyalari orqali dunyoda ulug‘ zotlar yetishib chiqishi muqarrardir. Agar xotun o‘qigan bo‘lsa, o‘zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go‘zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo‘ladi va nihoyat, Alloh Taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi. Va shu sababli o‘zi ham, eri ham, bolalari ham dunyo va oxiratda masrur bo‘ladi”

Olimaning murojaati, asosan xotin-qizlarga qaratilgan bo‘lib, oilada baxtli hayot kechirish uchun ayol kishi ikkita narsani bilish kerak, deb hisoblaydi: “Birinchi: erlarning tabiat mijozini va xulqini yaxshi bilmoq va buning uchun ularni ko‘p martabalar sinamoq kerakdir.

Shunigdek, oila masalalari bo‘yicha chop etilgan va hozirgacha o‘z qadrini yo‘qotmagan qimmatli asarlardan yana biri tatar olimi Rizouddin ibn Faxruddinning “Oila” kitobidir. Bu asarda u oilada farzand tarbiyasida onaning rolini yuqori baholab, u “Xotunlari tarbiyali bo‘lgan xalq – tarbiyali-yu, xotunlari tarbiyasiz bo‘lgan xalq tarbiyasiz, xotunlari tirishqoq, tadbirkor, irodali bo‘lgan xalq boyu, xotunlari yalqov yoki isrofgar xalq faqir bo‘lishi aniqdir” deb ta’kidlaydi.

Xotin kishining bola tarbiyasidagi roli xususida: “Bolalariga tarbiya bera bilmagan va husni axloq o‘rgata olmagan xotindan foyda o‘rniga ulug‘ zararlar ko‘rilur. Zero bunday xotunlar xalq orasida vabo mikroblaridan zararli bo‘lgan insonlarni yetishtirurlar” deb aytgan fikrlari bugungi kunda ham ibratlidir.

Ma’rifatparvar shoir Abdurauf Fitrat insoniy saodatga erishishning birinchi omili – salomatlik deb biladi, ikkinchisi – sog‘lom fikr, uchinchisi – komil ahloq. Ularning asosi esa, uning fikricha, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va ahloq tarbiyasidan iborat. Fitratningning nuqtai nazaricha, farzand

tarbiyasi ona jismida bola paydo bo'lgan kundan boshlanmog'i kerak. U, onadagi holat va kechinmalar murg'ak vujud tabiatiga ham ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, ona qiz bola uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Ona hali zurriyodi dunyo yuzini ko'rmasdanoq unga o'zidagi barcha ijobiy va salbiy fe'l –atvorini o'tkaza boshlaydi. Onaning insonlarga, tabiatga munosabati bolada ham o'z aksini topadi. Shuning uchun xalqimizda “Chetini ko'rib bo'zini ol, onasini ko'rib qizini ol”deb bejiz aytilmagan.

Ayniqsa, qiz bola tarbiyasidagi onaning kichik bir xatosi ham juda mudhish oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois ona, uning qizi bo'lg'usi avlod davomchisini tarbiyalovchi inson, ona bo'lishini, bir daqiqa ham unutishga haqqi yo'q. Buning uchun onadan farzand tarbiyasida juda katta bilim, sabr – qanoat, go'zal ahloq egasi bo'lishi talab etiladi. Donolar aytganidek bu dunyoda eng og'ir ish bu- bola tarbiyasidir.

Zero ota ham, ona ham farzandiga hulqidan ortiq meros bera olmas deyiladi muqaddas kitoblarimizda

Shu bois, biz tadqiq etgan muammoning zahirida ana shu masalaning yechimiga javoblar topish masalasi yotadi.

Tadqiqotimizda hozirgi erkinlik va demokratik munosabatlar rivojlanib borayotgan sharoitda o'zbek oilalaridagi o'smir yoshli o'g'il va qizlarning jinsiy identifikatsiyasini to'liq oilalar misolida o'rganildi va ota-onalikning ushbu jarayonga ta'sirini aniqlandi.

Bizga ma'lumki, bola dastlab ota-onasining hulqidagi jinsiy tafovutlarni, so'ngra boshqa kattalar, o'qituvchilar, tanish-bilishlarning xulqiga nazar solib, erkak va ayolga xos sifatlarni idrok qiladi va o'zini u yoki bu jins vakiliga identifikatsiya qiladi. Ya'ni, jinsiy identifikatsiyaning ilk muhiti – bu oila va undagi er-xotin munosabatlaridir. Bola shakllanadigan dastlabki ijtimoiy tasavvurlardan biri – “agar jinsimga mos ravishda harakat qilmasam, meni boshqalar qoralashadi”, degan fikrdir. Shaxsning o'zgalarga va o'zga jins vakiliga bo'lgan munosabatlarining yo'nalishini belgilovchi g'oya ham aynan shunday ijtimoiy tasavvurga asoslanadi.

Ma'lumki, ota-onalar identifikatsiyasi ota-onalar shaxsidagi muhim shaxsiy fazilatlarga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular o'z navbatida bola tomonidan anglanmagan taqlid qilish orqali ro'yobga chiqishini e'tirof etishadi. Bolalar o'z o'yinlarida ota-onalarining xatti-harakatlarini va fe'l-atvorlarini yaqqol aks ettiradilar. Qo'g'irchoqni qo'liga olib o'ynayotgan qiz bolani kuzatganda uning qo'g'irchoqni shirin so'zlar aytib erkalayotganini, avaylab tizzasiga yotqizib alla aytayotganini ko'rish mumkin. Bu holatda qizaloqning onasiga, uning hatti-harakatlariga taqlidini ko'rish mumkin.

Nazariy tahlil asosida tashkil etilgan empirik izlanishda o'zbek oilasida tarbiya topayotgan o'smir yoshli o'g'il va qiz bolalarning o'z jinsini anglashida ota-onaning, ulardagi liderlik rollari taqsimotining, o'zbek ayoli va erkagining oiladagi mavqei ular tarbiyalayotgan o'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning adekvat shakllanishi uchun ob'ektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy-psixologik omil ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot mobaynida to'plangan ma'lumotlar shundan darak beradiki, oila muhiti va tarkibiga bog'liq tarzda bolada jinsiy o'zini-o'zi anglash aniq chegaralanmagan yoshda namoyon bo'la boshlaydi. Ularning va undagi qabul qilingan qadriyatlar an'analar, oilada jinsiy o'zini-o'zi anglashiga bola tarbiyalanidigan ma'lum muhit munosabatlarning o'ziga xosligi, oila tarkibi, mavjud gender stereotiplar, ota-onaning oiladagi gender roli, jinsiy tarbiya borasidagi qarashlari va shaxsiy fazilatlarga bog'liqdir. So'nggi yillarda ayollarning ijtimoiy hayotida tutgan o'rnining o'zgarib borishi umuman yigit va qizlar psixologiyasida qator sifatlarning o'zgarib borishi ularning jamiyat va oiladagi gender o'rniga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmasligi ham tadqiqotda qisman o'z tasdig'ini oldi. Chunki oilaviy o'zaro munosabatlarda amalda liderlikning, ya'ni, erkakning yoki ayolning oilaning boshqa a'zolari irodasi va hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishi orqali obro'-e'tibor qozona olish qobiliyati shu muhitda tarbiyalanayotgan farzand irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va uning o'z jinsi imkoniyatlari hamda shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishida

muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham biz tanlab olingan oilalardagi er va xotinning amaldagi liderlik maqomlari ijtimoiy tasavvurlarida qanday aks etganligini, so'ngra ularning farzandlaridagi gender identifikatsiyani o'rgandik.

Olingan natijalar oilada ota-onalarning o'zaro munosabatlari ta'sirida tarbiyalanayotgan qiz bolaning avvalo onasining otasiga munosabatiga e'tibor qaratishini, onaning oilada bajarayotgan gender roliga qarab o'zini kelajakda aynan ayollik va onalik roliga tayyorlab borishini isbotladi. Otaning onaga munosabatiga qarab esa, qizlar odatda o'zini kelajakda turmush o'rtog'iga nisbatan qanday tutishini o'rganib boradi. O'g'il bolalardagi jinsiy tarbiyasida ham shunga o'xshash tamoyil ustivor bo'ladi, ya'ni, u ham ota-onalar o'zaro munosabatlariga mos tarzda o'zini kelajakda oila boshlig'i, er roliga hamda onasining yurish-turishi va farzandlarga munosabatiga qarab, otalik roliga ruhan tayyorlab boradi.

Biz olgan natijalarnig eng etiborga molik tomoni, ayollarning aksariyati oilaviy o'zaro munosabatlarda agressiv liderlikdan qochishlari (8,3% xolos), shaxsiy magnetizm va majburiy liderlikdan vaqti-vaqti bilan foydalanishni afzal ko'rishlarini (15,4%) aniqladik. Erkaklar javoblari tahlilida esa aynan ayollar javoblariga xos bo'lmagan liderlik shakllari ko'proq namoyon bo'lmokda, ya'ni, ular mehr-muhabbat va o'zaro kelishuv asosida oilaviy munosabatlarni muvofiklashtirishdan ko'ra (5,6% xolos), ochik majburiy (tayzikli) liderlik hamda kerak bo'lsa, agressiv liderlikni namoyon etishga moyil va tayyorroq ekanligi raqamlardan ma'lum bo'lib turibdi. Demak, biz qo'lga kiritgan empirik ma'lumotlarning ishonchliligi va asosli ekanligini yana bir marotaba tasdiqlaydi. Sharq erkaklariga xos bo'lgan oilada yetakchilikka mutloq da'vogarlik hali-xanuz erkaklarning ijtimoiy ustanovkalarining kognitiv sohalarida saqlanib qolgan.

Erlariga qarama-qarshi o'laroq, shaxsiy sifatlar nuqtai nazaridan o'zlarini ayollar erkaklardan kam hisoblamasalarda, baribir, oilaviy munosabatlarda erkaklar bilan kelishib yashash, oilaviy muammolarni hal etishda sherikchilik munosabatlariga tayanishga moyil ekanliklarini namoyon etmokdalar. Bu ham o'zbekistonliklar oilasini qadriyat sifatida ushlab turgan sifatlardir.

Xulosa qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, biz tanlagan empirik ob'ektdagi kattalarning oilaviy munosabatlari xarakteri ularning o'z farzandlaridagi gender o'ziga xoslikni tarbiyalash, jinsiy identifikatsiyaning shakllanishiga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik muhit rolini o'ynashga qodir. Chunki davr taqozosi bilan xotin-qizlarda shakllanayotgan yangi, demokratik, faol sifatlar qizlar psixologiyasiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatsa, shu oilada kamol topayotgan o'g'il bolaning tasavvurlarida jinslararo muloqotning samarali shakllari to'g'risida bilimlar bo'lishiga ham imkon beradi.

Erkakning faol va yetakchi mavqei, undagi liderlikning sifati va turidan qat'iy nazar, qiz bolada istiqboldagi oilaviy munosabatlarda zamonaviy ayol-ona obraziga ega bo'lish va gender muomala maromlarini aniq tasavvur etishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Oila: ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy-ommabop maqolalar to'plami / Prof. V.M. Karimova tahriri ostida. – Toshkent, 2007.- 118 b.
2. Olimat ul –Banot. Muosharat odobi // Mas'ul muh. A. Irisov; tarj. va nashrga tayyorl. T. Zieev. - T.: Mehnat, 1991.- 32 b.
3. Rizoiddin ibn Fahriddin. Oila. – T.: Mehnat, 1991 – 64 b.
4. Психология семейных отношений : конспект лекций / сост. С.А. Векилова.- М.: АСТ; СПб.: Сова, 2005 – 127 с.
5. Практикум по гендерной психологии / Под ред. И.С. Клециной .- СПб.: Питер, 2003.- 479 с.